



MAXMUD TOROBIY QO'ZG'OLONI SHARQ TARIXCHILARI ASARLARIDA

Oblayeva Tursunoy Komilovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Navoiy akademik

litseyi Tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13902844>

Annotatsiya

Ushbu maqola Mahmud Torobiy qo'zg'oloni Ato Malik Juvayniyning "Ta'rix-i Jahon-kushoy" va Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba ulus" asarlarini o'rgangan holda yozildi.

Kalit so'zlar


Mahmud Torobiy, Ato Malik Juvayniy, "Ta'rix-i Jahon-kushoy", Mirzo Ulug'bek, "Tarixi arba ulus", Shamsuddin Mahbubiy, mo'g'ullar zulmi, Malik Sanjar qasri, Muhammad va Ali, Eldiz No'yon va Chekan Qurchi, Maxmud Yalavoch.

Mo'g'ul davlatining tashkil topishi (1224 - 1370) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Chig'atoylar davlatida 13-asrda vujudga kelgan boshqa uluslardagi kabi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ham mo'g'ullarning ko'chmanchi hayoti va ularning tartib-qoidalari uzoq vaqt davomida hukmron bo'lib qoldi. O'rta Osiyoda o'z siyosiy mavqeini mustahkamlagan, lekin o'troq turmush tarzi va xo'jaligining iqtisodiy ahamiyatini tushunmagan ko'chmanchilar mahalliy xalqlarga nisbatan shafqatsiz siyosat olib bordilar. Bosqinchilarning hujumi Markaziy Osiyo xalqlari davlat tuzumi, boshqaruv tizimi, agrar munosabatlari, Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan Mavorounnahr va unga tutash viloyatlarning shahar hayotiga ta'sir qildi

Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, mo'g'ullar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan mamlakatlarni o'zlariga bo'ysundirgan edilar.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni va uning mo'g'ul bosqinchilari tomonidan mahalliy zodagonlar bilan ittifoqchilikda bostirilishi muhim tarixiy oqibatlariga olib keldi va O'rta Osiyo xalqlari tarixining keyingi borishiga ta'sir ko'rsatdi.

Chig'atoy ulusida mo'g'ullar istibdodi ostida ezilgan va zulmidan to'ygan mahalliy aholi qo'zg'olon ko'tarishga bir necha marta harakat qilgan. Buxorodan 20 km g'arbdagi Torob qishlog'i (hozirda Buxoro viloyati Jondor tumani hududi) da boshlangan qo'zg'olon bu kurashning cho'qqisi hisoblanadi. Torob qishlog'i





va uning atrofida dehqonlar va hunarmandlar majlislarida o'zaro kengashib, mo'g'ullar zulmiga qarshi ochiq kurash boshlashga qaror qilganlar.

Qo'zg'olonchilar Mahmud Torobiy boshchiligida Buxoroga yurishdi va shahardagi Malik Sanjar qasri (1206-yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari qurdirgan) ni egallab, uni o'zlariga qarorgoh qilib olishdi. Ular safiga ko'plab tarafdorlar va maslakdoshlar kelib qo'shilgan. Torobiyning opasi ham qo'zg'olonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, bu tabib va duxon ayol o'z mardligi, kuch-g'ayrati, jasorati va dushmanga nafrati bilan qo'zg'olonchilar orasida alohida ajralib turgan.


Mahmud Torobiy qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchrasa ham, u izzat ketmagan. Mo'g'ul ma'murlari endilikda mahalliy aholi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lib, o'lpon va soliqlarni kamaytirishgan. Ma'lum muddat turli o'zboshimchaliklarga chek qo'yilgan. Chig'atoy ulusini mo'g'ul xoqon (qoon)lari nomidan boshqargan Mahmud Yalavoch va uning o'g'li Mas'ud Yalavoch bu paytda ham xoqonlar manfaatini ko'zlaydigan, ham mahalliy xalqqa xayrixoh nozik siyosatni yuritishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Tarixchi Ato Malik Juvayniyning "Ta'rix Jahon-kushoy" asari ma'lum ma'noda Mahmud Torobiy qo'zg'oloni tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Buning qiymati Mahmud Torobiy qo'zg'oloni tarixini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda tadqiqotchilar tomonidan to'liq ta'kidlangan.

Juvayniyning yozishicha, yirik tasavvuf shayxi va aqid ulamosi Shamsuddin Mahbubiy qo'zg'olonchilarning g'oyaviy rahnamosi sifatida qo'shin va xalq o'rtasida katta tashviqot ishlarini olib borgan. Ular mo'g'ul bosqinchilari va ular xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mol-mulkini beva-bechoralarga taqsimlab berishgan. Buxoro butunlay qo'zg'olonchilar qo'lga o'tgan. Mahmud Torobiy Robia saroyiga joylashib, sulton qilib ko'tarilgan, bosh sadr Burhoniddin uning talabi bilan Shamsuddin Mahbubiy shahar sadri etib tayinlagan.

Mo'g'ul qo'shinlari va bosqinchilari bu paytda Karmanaga qochib, shoshilinch kuch to'play boshlaganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Karmanadan yuborilgan mo'g'ul qo'shinlari Buxoro atrofida tormor keltirilgan; jangda 10 ming mo'g'ul askari o'ldirilgan. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni quvib, Karmanagacha borganlar. Biroq bu jangda Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy ham halok bo'lishgan. Qo'zg'olonga Mahmud Torobiyning 2 ukasi: Muhammad va Ali rahbarlik qilganlar. Mo'g'ullar ularga qarshi Eldiz No'yon va Chekan Qurchi boshliq yangi kuchlarni tashlashgan. Karmana yaqinidagi Raboti





Malik (hozirgi Navoiy tumani markazi Malik rabot)da bo'lgan shiddatli jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan, ulardan 20 ming kishi, jumladan, Muhammad hamda Ali ham halok bo'lgan. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Mo'g'ullar Buxoroga kirib, shahar va uning atrofidagi kishilarni talashga va o'ldirishga kirishgan. Xo'jandda turgan Maxmud Yalavochning bu yerga kelishi bilan Buxorodagi qirg'in to'xtatilgan. U talangan va vayron etilgan shahardan hech qanday soliq yig'ib bo'lmasligiga Chig'atoyni ishontira olgan.

Juvayniy XIII asrning eng muhim voqeasi – bu qo'zg'olon haqida Markaziy Osiyoda ma'lumot bergan birinchi tarixchidir. Uning ma'lumotlari bu qo'zg'olonni yoritishda keyingi ko'plab tarixchilar Hamdulloh Qazviniy, Vassaf al-Hazrat, Fosihi Hafiy, Sharaf ad-din Ali Yazdiy, Mirzo Ulug'bek, Mirxond, Xondamir va boshqalar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.


Ato Malik Juvayniyning fikricha, xalq noroziliklari odatda mansabdor shaxslarni o'z vazifalarini suiiste'mol qilishdan kelib chiqishi mumkin. Lekin Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni kabi rasmiy hokimiyatga qarshi qaratilgan ommaviy harakat, u tomonidan davlatning yagona qonuniy vakili – mo'g'ul hokimiga qarshi qaratilgan qarshi harakat sifatida tavsiflanadi.

Mirzo Ulug'bekning “Tarixi arba ulus” asarida esa Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni hijriy 630 yilda bo'lganligi, asarda Mahmud Tarobiy shayx sifatida e'tirof etilganligi, lekin keyinchalik bu qo'zg'olon ishtirokchilari boylarning uylarini talab Maxmud Torobiy oldiga olin kelinganligi, u bo'lsa keltirilgan mollarni lashkarga bo'lib berganligi haqida bilib olishimiz mumkin.

Natijalar

Bizning tahlilimiz natijasida XIII-XIV asrlardagi Movarounnahrda xalq harakatlarining asosiy sabablarini o'rganish muammosiga yangi va aniqroq ta'rifni shakllantirishga harakat qildik. Avvalo, bu davrda sodir bo'lgan deyarli barcha ijtimoiy namoyishlarning sababi o'sha vaqtdagi O'qtoyning 1235-1236 yillardagi harbiy yurishlariga qo'shin va oziq-ovqat masalasini hal etish maqsadida mo'gullar tomonidan o'tkazilgan bosib olingan aholiga zulm va zo'ravonlik edi. O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi davrida xalq ozodlik kurashi avj oladi va bu turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bu kurashning shakllari: xalqning hokimiyatga murojaati, iltimoslari, shikoyatlar va shu bilan birga dehqonlar va hunarmandlarning turli vazifalarni bajarishdan, davlat bojlari va soliqlarni to'lashdan bosh tortishi edi. Bu kurashning eng yorqin ko'rinishi esa Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni bo'ldi.

Manbalarni tahlil qilish bizga shunday xulosa chiqarish imkonini beradi: bu harakatning ijtimoiy asosi (mayda hunarmandlar), oddiy qishloq aholisi,





Buxoro shahar aholisi ekanligidadir. Ushbu harakatning o'ziga xos xususiyati bu shahar va unga tutash qishloqlarning mehnatkash qatlamlari, kambag'al hunarmandlar va dehqonlarning o'zaro aloqalari asosidagi umumiy kurashidir. Bu holat qo'zg'olonning misli ko'rilmagan kuchli va keng ko'lamli bo'lishini ta'minlaganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarixi jahonkusho. / Alouddin Atomalik Juvayniy; mas'ul muharrirlar H. Boltaboyev, M.Mahmudov. — T.: Mumtoz so'z, 2015.
2. Ulug'bekning "Tarixi arba ulus" asari. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti 1994 yil.

